

**QASHQADARYO VILOYATINING CHO'L LANDSHAFTLARI VA  
UNDA CHO'LLANISH JARAYONI MUAMMOLARI**  
**Eshboyev B.T.**

Qarshi Davlat Universiteti dotsenti

**Shodiyeva U.S.**

Qarshi Davlat Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqola Qashqadaryo viloyatining cho'l hududlarida cho'llanish jarayoni natijasida yuzaga keladigan ekologik xavf va uning oldini olish chora tadbirlari tug'risida fikr yuritilgan. Uning tabiatga salbiy tasirlari atroficha asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** *cho'llanish, arid, sho'rланish, landshaft,, yerlarning o'zlashtirilishi.*

**ПУСТЫННЫЕ ЛАНДШАФТЫ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И  
ПРОБЛЕМЫ ПРОЦЕССА О ПУСТЫНИВАНИЯ**

**Аннотация:** в данной статье рассматривается экологический риск, возникающий в результате процесса опустынивания в пустынных регионах Каракалпакской области и меры по его предотвращению. Подробно объяснено его негативное воздействие на природу.

**Ключевые слова:** *опустынивание, аридность, засоление, ландшафт, освоение земель.*

**DESERT LANDSCAPES OF KASHKADARYA REGION AND THE PROBLEMS OF  
THE DESERTIFICATION PROCESS**

**Abstract:** This article discusses the ecological risk that occurs as a result of the desertification process in the desert regions of Kashkadarya region and measures to prevent it. Its negative effects on nature are explained in detail.

**Key words:** *desertification, aridity, salinization, landscape, land development.*

**Kirish:** Bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng jiddiy ekologik va sotsial-iqtisodiy muammolardan biri, bu cho'llanish muammosidir. Cho'llanish - bu tabiiy-geografik va antropogen jarayonlarning o'zaro ta'siri yig'indisi bo'lib, arid hududlardagi ekosistemalarni yemirilishi, organik hayot shakllarining degradatsiyalashushi va bu hududlarning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarining pasayishi tushuniladi. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzining 1/3 qismi cho'llanish xavfi ostida bo'lib, dunyoning arid hududlarida yashayotgan millionlab insonlarning hayot tarziga ham ta'sir qiladigan muammodir. Inson xo'jalik faoliyatining kuchli ta'siri natijasida O'zbekiston hududida cho'llanish jarayoni chuqurlashib va kengayib borishi kuzatilmoqda. Cho'llanish jarayonlari 210 mln. hektar maydonni egallab yotgan O'rta Osiyoning arid hududlari uchun ham xarakterli. Tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekiston hududining 60%dan ko'proq maydonida har xil darajada cho'llanish jarayoni sodir bo'lmoqda [4; 10-168 b.].


O‘rta Osiyoning, xususan Orol dengizi havzasida, cho‘llanish jarayoniga duchor bo‘lgan landshaft majmularining umumiy maydoni A.G.Boboyevning (2000) bergan ma’lumoti bo‘yicha 1 405 840 km<sup>2</sup> ga teng. Shundan kuchsiz cho‘llangan yerlar 837 714 km<sup>2</sup> ni (59,6%), mo‘tadil cho‘llangan yerlar 474 356 km<sup>2</sup> ni (33,7%) va kuchli cho‘llangan yerlar 93 770 km<sup>2</sup> ni (6,7%) tashkil etadi.

A.A.Yurtayevning (2011) fikricha, qishloq xo‘jaligi yerlarining tarkibi va maydoni qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi va intensivlik darajasiga qarab belgilanadi. Qishloq xo‘jaligining agrolandshaft resurslari va ixtisoslashuvi har bir region uchun o‘ziga xos va regionlar bo‘yicha farq qiladi [3]. Ta’kidlash lozimki, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish resurslari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda qatnashadigan resurslarning quyidagi turlarini birlashtiradi:

- a) agroiqlimiyl – madaniy o‘simgiliklarning mahsulot berishi yoki yaylov uchun zarur bo‘lgan issiqlik va nam resurslari;
- b) tuproq-yer resurslari – tuproq (biomassa) ham tabiiy resurs va ishlab chiqarish vositasi sifatida qaraladi;
- c) o‘simgilik ozuqa resurslari – chorvaning ozuqa bazasi bo‘lib xizmat qiladigan biotsenozlarning resurslari;
- d) suv resurslari – dehqonchilikda sug‘orish va chorvachilikda foydalananiladigan resurslar.

Bundan tashqari qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini tashkil etishda relyefning xususiyatlarini tabiiy sharoit sifatida e’tiborga olish muhim amaliy ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyati o‘zining egallab turgan yer maydoni bo‘yicha O‘zbekistonda eng yirik viloyatlardan hisoblanib, uning umumiy yer maydoni 2856,8 ming hektarni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra 2020 yil yanvar holatida viloyatda 2143,3 ming hektar qishloq xo‘jalik yerlari bo‘lib, shundan o‘rmonlar 109,1 ming hektarni, bog‘lar va tokzorlar 35,7 ming hektarni tashkil etadi. Sug‘oriladigan yerlar 417,2 ming va lalmi yerlar 253,2 ming hektardan iborat. Lalmikor yerlar o‘rtacha yillik yog‘in miqdori 250 mm dan oshadigan hududlar hisoblanib, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish faqat yog‘inlar hisobiga amalga oshiriladi. Qashqadaryo

vohasining mavjud yer resurslari lalmikor dehqonchilikda ancha katta miqyoslarda foydalanish imkoniyatini beradi. Qashqadaryo viloyatida haydalib, ekin ekiladigan yerlar maydoni 670,5 ming hektar yoki umumiyligi maydonning 23,7% ga yaqin bo‘lib, shundan 253,2 ming hektari yoki jami ekin maydonlarining 9,1% lalmikor dehqonchilikda foydlaniladi. Cho‘llanish, asosan arid mintaqa uchun xos bo‘lib, yer, suv, o‘simplik va boshqa resurslarning degradatsiyalashuvdir. Degradatsiya - (fr. degradatsiya – asta-sekin yomonlashuv) yog‘in miqdorining kamayib borishi bilan iqlimning quruqlashishi, cho‘l hududlari maydonining kengayishi natijasida yuzaga keladigan tabiiy ekosistemalarning buzilishidir. Qurg‘oqchil (arid) iqlim mintaqasida cho‘llar maydonining 1960 yillardan boshlab keskin kengayishi avvalo mamlakatlarda aholi sonini to‘xtovsiz oshib borishi, mamlakatlarning aholini oziq-ovqat bilan ta’minalash, maqsadida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun ekin maydonlarining kengayib borganligi hamda ma’lum ma’noda qurg‘oqchilikning tez-tez sodir bo‘lganligi bilan bog‘liqdir. Tadqiqot sifatida Qashqadaryo vohasida sodir bo‘layotgan cho‘llanish jarayolaridan ba’zi omillari tahlil qilindi.



*1-rasm. Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan yer maydoni  
(1915-2020 yy.).*

Cho‘lni o‘zlashtirish va sug‘orish uchun kapital mablag‘lar ajratilishi bilan bir qatorda Qarshi cho‘liga mehnat resurslarini ta’minlash hamdamoddiy texnika ta’minotini yetarli darajada yetkazishdek ustuvor vazifalarni ham bajarish kerak bo‘lgan. Eng avvalo Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish ishlari uchun 1963 yil o‘rtalaridan boshlab qurilish guruhlari tashkil qilingan. Bu tadbir uchun Moskva, Leningrad, Kuybishev, Toshkent institatlari loyihalarni tayyorlagan. Ural Qarshi magistral kanali suvini ko‘tarib beradigan noyob nasoslarni [2], Minsk, Kremenchug, Gorkiy shaharlari MAZ, KRAZ va boshqa mashinalarni, Sibir yog‘och-taxta, turli uskunalarni yuborgan [1]. Shu bilan birga mehnat resurslarini ta’minlash maqsadida aholini ko‘chirish siyosati olib borilgan. Respublika viloyatlaridan va viloyatning boshqa tumanlaridan ishslash uchun aholi ko‘chirtirilgan. Hududda ishchi kuchini shakllantirish zarurati ko‘p sonli mehnat resurslarini jalg qilishni talab qilgan. Viloyatdagi Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog‘, Qamashi, Dehqonobod, G‘uzor, Qarshi, Ulyanov, Koson tumanlari kabi aholi ko‘p yashaydigan hududlar hamda yer kam bo‘lgan tog‘ yonbag‘ri va tog‘li tumanlar mehnat resurslarini yetkazuvchi hududlar sifatida tanlangan. Bunday yo‘l tanlanishga yagona sabab aholini majburiy ko‘chirtirish siyosatida ularning «ixtiyoriy» kelishini yuzaga chiqarish bo‘lgan. Ko‘chirish siyosatida aholi migratsiyasining barcha shakl va ko‘rinishlari yaqqol namoyon bo‘lgan. Jumladan, aholi migratsiyasini tashqi, ichki va viloyatlararo turlari hamda rejali, tashkiliy, ixtiyoriy kabi shakllarini bu o‘rinda ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, mustaqil, ixtiyoriy (rejadan tashqari) ko‘chganlarga nisbatan «betartib» va «o‘zboshimcha» kabi tushunchalar qo‘llanilgan.

Cho‘lni o‘zlashtirishda ishlarni kompleks tashkil qilish tajribasi yo‘lga qo‘yilgan. Ya’ni, irrigatsiya-melioratsiya, sovxoz qo‘rg‘onlarini bunyod qilish, yo‘l qurilishi va malakali kadrlar tayyorlash ishlari bir vaqtning o‘zida birga olib borilgan. Respublikada Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishda aynan shu jihatlarga e’tibor qaratilgan. Yangi yerkarni o‘zlashtirish jarayonini jadallashtirish maqsadida qurilish ishlari «Glavsredazirsovxostroy» tarkibida tashkil qilingan

«Qarshiqurilish» boshqarmasiga topshirilgan va boshqarma zimmasiga vazifalar yuklangan.

**Xulosa.** Yangi tashkil qilinayotgan davlat xo‘jaliklari, o‘zlashtiriladigan yerlar miqdori ortgan sari ishchi kuchi ehtiyoji ham oshib borgan. Respublika aholisini yangi yerkarta reja asosida ko‘chirishni davlat tashabbusi bilan tashkil etish amalga oshiriladigan bo‘ldi Qarshi cho‘lining sug‘oriladigan va o‘zlashtiriladigan hududlariga har yili 3 ming nafar kishidan jami 9 ming nafar kishini safarbar qilishni ta’minalash vazifasi yuklatish ushbu hudud uchun katta manfaat keltirishi mumkun. Aytib o’tish joizki har qanday joyning tabiat kompleksini o‘z rivojlanish tartibiga, individual xususiyatlariga ega bo‘lgan ekologik-geografik tizim deb qarash oqilona foydalanishning asosini tashkil qilishini e’tiborga olib, Qashqadaryo vohasidagi mavjud yerdan oqilona foydalanish dehqonchilikni tarmoqlarini yanada rivojlantirishda va tuproq unumdorligini saqlab qolishda katta ahamiyatga egaligi asoslanildi. Bu esa yurtimizda qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil oishda, hosildorlik miqdorini bashoratlashda muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xolmo‘minov H. Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi jarayonida mehnat resurslarining shakllantirilishi. O‘zbekiston tarixi. –T.: 2012. 3-4 son. –B.65-66
3. Ирригация Узбекистана – Т.: –C.86
4. Abdullayev S.I., Nazarov M.G. Qashqadaryo havzasining antropogen landshaftlari va ularning geoekologik holati. Monografiya. Qarshi – 2020 y. 133 b.
5. Кориев М., Хисомов А. Қарши чўли ва унинг келажаги. – Т.: 1963. – Б.